

AKADEMIK YOZUV FANIDAN ANNOTATSIYA MAVZUSINI O'TKAZISHDA NAZARIY VA AMALIY YONDOSHUVLAR

Malika Jazilova Bekmirzayevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'qituvchisi

malikajazilova9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287060>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Akademik yozuv fanidan Annotatsiya mavzusini o'zlashtirishda nazariy malumotlar va amaliy mashg'ulotni o'zlashtirish bo'yicha annotatsiya tarkibida qo'llaniladigan ilmiy, rasmiy, til vositalari va ularning qanday qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, annotatsiya, annotatsiya turlarini o'rganishda talabalarga yordam beradigan metodik tavsiyalar va topshiriqlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Annotatsiya, kitob, maqola, yondoshuv, tavsif, xususiyat, obyektiv baholash.

Akademik yozuv fani oliy ma'lumotli mutaxassisning yozma va nutqiy mahorati, kasbiy malakasini namoyish etish vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Ushbu fan orqali talabalarda so'z va terminlarni qo'llash, gap va matnlarni to'g'ri va mantiqiy tuzish, nutqiy etiketka rioya qilish hamda notiqlik mahoratini rivojlantirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Respublikamizdagi barcha bakalavriat ta'lim yo'nalish talabalari uchun bu fan mutaxassislik tili bilimlarini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Annotatsiya ilmiy yoki akademik ishlarga oid materiallarning asosiy mazmunini qisqacha ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ilmiy annotatsiya o'quvchiga matnning asosiy g'oyasini va uning ilmiy ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Annotatsiya, annoatasiya turlarining o'ziga xos xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati o'rganilgan. Ushbu mavzularda talabalarga yetarli bilim va ko'nikma berish ilmiy va rasmiy yozuvlarda muvaffaqiyatga erishish uchun asos yaratadi. Annotatsiyaning turlari va ularning ilmiy ahamiyati, nutq uslublarining to'g'ri qo'llanilishi talabalarning ilmiy va professional yozuvlarini rivojlantirishdagi o'rnini belgilab beradi. Shuningdek, ilmiy va akademik yozuvlarning samarali tashkil etilishiga oid tavsiyalar orqali talabalar yozma va og'zaki nutqiy mahoratlarini takomillashtirishlari mumkin.

Annotatsiya lotin tilida "qayd", "ma'lumot", "xabar" degan ma'nolarni anglatadi. Annotatsiya - kitob, maqola, matn mazmunining yozma shaklda qisqacha bayoni.

Annotatsiya - bu ikkinchi darajali matn bo'lib, uning o'rtacha hajmi bibliografik tavsifisiz 40-50 so'zlardan iborat. Annotatsiyaning har bir ma'noli qismi til klishe'lari yordamida amalga oshiriladi.¹

Annotatsiyaning mohiyati va maqsadi axborot manbaining qisqacha tavsifini beradi va ilmiy matnda aytilganidek, savolga javob beradi. Annotatsiyadagi nutqning asosiy turi - bu ta'rifdir. Annotatsiya ilmiy matnning mazmuni haqida eng umumiy fikrni beradi va shu bilan kerakli ma'lumotlarni topish va tanlashda yordam beradi.

Annotatsiya o'zining kamso'zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi. Batafsil yozilgan annotatsiya quyidagi savollarga javob bera olishi lozim.

¹ Abdullayeva S.X., Dospanova D.U. Академическое письмо. Учебное пособие., Ташкент., 2024. 54-bet.

- Ishda nima haqda soʻz boradi?
- Muallif qanday savollarni oʻrtaga qoʻyadi?
- Bu savollar qanday yoritib berilgan?
- Ishning tuzilishi qanday?
- Yozilgan ish kimlarga moʻljallangan? v.h.

Matn annotatsiyasining toʻliq tuzilishi:

1. Asosiy matnning bibliografik tavsifi.
2. Asosiy matn mazmunining qisqacha bayoni.
3. Matn qabul qiluvchisi (adresati).

Annotatsiya ilmiy ishlar, dissertatsiyalar, maqolalar, monografiyalar va boshqa ilmiy materiallarning qisqacha va loʻnda tavsifini taqdim etish uchun ishlatiladi. Bu oʻz navbatida, oʻquvchilarga yoki tadqiqotchilarga asar haqida tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Annotatsiyalarni yozishda asosan quyidagi jihatlar eʼtiborga olinadi:

- ✓ Asar mavzusi va dolzarbligi;
- ✓ Asarning maqsadi va tadqiqot savoli;
- ✓ Asosiy metodologiya va yondashuvlar;
- ✓ Xulosalar va ilmiy ahamiyat.

Annotatsiyaning turlari mavjud boʻlib, ular matnning maqsadiga qarab oʻzgaradi:

1. **Kengaytirilgan annotatsiya** – asar haqida batafsilroq maʼlumot beradi, oʻquvchiga toʻliq tushuncha berishga qaratilgan.
2. **Qisqacha annotatsiya** – matnning eng muhim jihatlarini qisqacha va loʻnda tarzda taqdim etadi. Annotatsiyaning birinchi tarkibiy komponenti - bibliografik tavsif - matn muallifining koʻrsatmasi bilan boshlanadi.

Axborot (maʼlumot)	Tavsiyaviy	Guruhli
Matnning taʼrif va xususiyatlari (kitoblar, maqolalar va boshqalar)	Tavsif, xususiyatlari, obyektiv baholash, axborotdan foydalanish boʻyicha tavsiyalar	Bir nechta matnlarning umumiy xususiyatlari (kitoblar, maqolalar)

Annotatsiya tuzish

Annotatsiya maqola yoki adabiyotning kimga moʻljallanganligi, shakli, mazmuni jihatidan qisqacha tavsifi. Annotatsiyada quyidagi savollarga javob beriladi: manbada nima haqida gapiriladi va u kimga moʻljallangan.

Annotatsiyaning hajmi kichik boʻlib, 500 bosma belgi atrofida boʻladi. Annotatsiyaning tili adabiy hamda hamma uchun tushunarli boʻlishi kerak. Uning kompozitsiyasi asar kompozitsiyasidan farq qiladi hamda u ikki qismdan iborat boʻladi: bibliografik tavsif va annotatsiyaning oʻzi.

Annotatsiya tuzishda qoʻyiladigan talablar:

- kompozitsiyasi mazmunan mantiqiy boʻladi va dastlabki matn kompozitsiyasidan farqlanishi mumkin;
- maʼlumotlarning tanlanishi, ularning ifodalanishi va joylashuvi annotatsiya matniga bogʻliq boʻladi;
- tili loʻndaligi, soddaligi, aniqligi bilan ajralib turadi;

- dissertatsiya, maqolaga annotatsiya bibliografik varaqada rasmiylashtiriladi, xatboshilarsiz beriladi;
- o'rtacha hajmi 500 bosma belgi, kam hollarda 800-1000.

Annotatsiya tuzishdagi asosiy xatolar:

- axborotning ko'pligi;
- fikrlarni ifodalashda gaplarning uzunligi;
- davrlarning ishlatilishi.

Annotatsiya tuzishda ortiqcha narsalar:

- kirish so'zlari va gaplari;
- murakkab gaplar.

Annotatsiyaning to'liq matni quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- annotatsiya berilayotgan asarning turi va kimga mo'ljallanganligi (kitob, darslik, to'plam, maqola, monografiya – shu so'z bilan annotatsiya matni boshlanadi): *To'plamda taqdim etilgan. Maqoladabayon etiladi. Monografiyadahaqida so'z boradi;*

- muallif o'z ishida qo'ygan maqsad va vazifalar: *Muallif o'z oldiga ...maqsadni qo'ydi. Nashrning maqsadi....iborat. muallif..... vazifalarni hal etadi;*

- asarning mavzusi (muammosi): *Maqolamavzusi/muammosiga bag'ishlangan; Kitobdamuammolari tahlil qilingan; Maqolamavzusida yozilgan;*

- asosiy mazmuni: *Maqoladamasalalari ko'rib chiqilgan/ tahlil qilingan/ tadqiq qilingan; Muallif tomonidan tahlil qilingan; Muallif tomonidan ...gipotezasi asoslangan; ishdahaqida gap boradi;*

- annotatsiya yozilayotgan asarning tuzilmasi (strukturalari): *Monografiya besh bobdan iborat; To'plam ikki bo'limni o'z ichiga oladi; Darslik o'n paragrafdan iborat; Maqolada uch qismni ajratib ko'rsatish mumkin;*

- illyustratsiya materiallari tavsifi: *Kitobdaillyustratsiyalar keltirilgan; Muallif o'z xulosalarini chizma va jadvallar yordamida keltirgan; Videoilova keltirilgan;*

- asarning adresati: *Kitob mutaxassislarida qiziqish uyg'otadi; Darslik universitetning yuqori kurs talabalari uchun mo'ljallangan; Monografiya nafaqat mutaxassislar uchun, balkiuchun ham qiziqarli bo'ladi; Maqola barcha uchun mo'ljallangan;*

Yodda tuting. Annotatsiya matnida ko'rsatib o'tilgan punktlar o'rni almashib kelishi mumkin, ba'zi ma'lumotlar umuman keltirilmaslgi ham mumkin.

Annotatsiyada klisheLashtirilgan so'z birikmalari:

Kitobda (nima?) tadqiq qilingan, (nima?) ko'rsatib o'tilgan. (nimani?).... ko'rib chiqish ishda katta o'rinni egallaydi. Monografiyada (nimaning?)..... tavsifi berilgan.

Tadqiqot kabi muammolarni ko'rib chiqish orqali olib borilgan.

Kitobda (nima?) tahlil qilingan. Asosiy e'tibor ga qaratilgan. (nimani?).... qo'llab, muallif bayon etgan..... ta'kidlab o'tilgan. belgilab berilgan. Kitobda (nima?).... berilgan. (nima?) ochib berilgan. Asosiy e'tibor (nimaga?) masalalariga qaratilgan. Ishda (qanday?) muammolarni, (qanday?) masalalarning hal qilinishi aks ettirilgan. (ijodiy) xarakteri ko'rinib turibdi. mezonlari o'rnatiladi. Kitobda aniq ochib berilgan..... tavsiflanadi..... ko'rib chiqiladi. Tahlil natijasida maqolada ko'rsatiladi. haqida gapiriladi. Xotima qismida qichqacha to'xtalib o'tadi.

Namuna

ANNOTATSIYA

Annotatsiya asosan alohida nashr hisoblanadigan o'quv qo'llanmalar, darsliklar va monografiyalarga yozilib, ularda asarning qisqacha mazmuni, ahamiyati, kimlarga mo'ljallab yozilgani o'z ifodasini topadi.

Akademik yozuv (1-bosqich bakalavriat ta'limi talabalari uchun o'quv qo'llanma) siga yozilgan Annotatsiya namunasi

O'quv qo'llanma 1-bosqich talabalari uchun akademik yozuv fani o'quv dasturi asosida tuzilgan (26.08.2021y.).

Maskur qo'llanma bakalavriatning barcha yo'nalishlari bo'yicha ta'lim oladigan guruhlar uchun tuzilgan bo'lib, akademik nutqning asosan yozma turini qamrab oladi. Qo'llanma talabalarga ilmiy va ommabop uslubga doir materiallar, ya'ni matnlar, ularning turlari, har bir matnda aks etishi lozim bo'lgan ma'lumotlar, axborotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotimizga oid hamda o'rganayotgan mutaxassisliklariga doir terminlar, ularni tanlashdagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rgatish uchun mo'ljallangan.²

Mavzularda berilgan nazariy ma'lumotlar topshiriq va mashqlar bilan mustahkamlanadi. Qo'llanmada talabalarning kasbiy lingvistik dunyoqarashini kengaytirishga hamda nutqiy mahoratini oshirishga yo'naltiruvchi materiallar berilgan.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Annotatsiyaning qanday turlari bor.
2. Annotatsiyaning hajmi qancha bosma belgi atrofida bo'ladi?
3. Annotatsiya nimalarga yoziladi?
4. Annotatsiyaning maqsadiga qarab qanday turlarga bo'linadi:
5. Annotatsiya tuzishda qo'yiladigan talablarni ayting?
6. Annotatsiya tuzishdagi asosiy xatolar qaysilar?
7. Annotatsiyada qanday klisheLashtirilgan so'z birikmalaridan foydalaniladi?
8. Matn annotatsiyasining to'liq tuzilishi necha qismni o'z ichiga oladi?

1-topshiriq. Annotatsiya mavzusi bilan tanishib, o'zingiz annotatsiya qoidasini yarating. Yaratgan qoidangizdan kelib chiqib annotatsiya yozing.

Namuna:

Qoida: Annotatsiyada asar yoki matnning asosiy g'oyasi va maqsadi qisqacha ifodalanishi kerak, lekin tafsilotlarga juda chuqur kirishmaslik lozim.

Bunda quyidagi tarkibga e'tibor berish kerak:

1. Asar yoki matnning mavzusi va asosiy fikri.
2. Asar yoki matnda yoritayotgan masala yoki muammo.
3. Yakunlar yoki xulosalar bilan tugaydi.

Annotatsiya

Maqolada ilmiy ish va uning turlari haqida so'z yuritilgan. Ilmiy ish qay tartibda yozilishi, qanday tartibda rasmiylashtirilishi kerakligi haqida ma'lumot keltirilgan. Ushbu maqola ilmiy ishni endi boshlayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ilmiy ishni boshlashda eng asosiysi nimalarga e'tibor qaratish lozimligi va maqola, tezislarni yozish tartib - qoidalari haqida so'z yuritilgan. Ilmiy ish aslida qanday yozilishi (yoki bo'lishi) haqidagi bir necha fikrlar jamlangan.

² K.A.Gayubova, N.D.Yulanova. Akademik yozuv. O'quv qo'llanma. Toshkent.: 2024. 34-b.

Kalit soʻzlar: Tezis, maqola, monografiya, ocherk, referat, avtoreferat, dissertatsiya, risola, oʻquv qoʻllanma.

2-topshiriq. Oʻqing. Nuqtalar oʻrniga mos qoʻshimchalarni qoʻyib annotatsiyani koʻchiring.

Lugʻat hozirgi oʻzbek adabiy tili... keng isteʼmol... boʻlgan 80 ming... ortiq soʻz va soʻz birikmalari..., fan, texnika, sanʼat va madaniyat sohalari... oid terminlar..., bir necha sheva... qoʻllanadigan soʻzlar..., baʼzi tarixiy va eskirgan atamalar.. ichi... oladi. Lugʻat... berilgan qoʻllanadigan soʻzlar.. amal... qoʻllanishi XX asr oʻzbek adabiyoti va matbuoti... olingan misollar bilan dalillangan. Lugʻat oʻzbek tilshunosligi va turkiyshoslik boʻyicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oily taʼlim muassasalari... oʻqituvchilari va talabalari, shuningdek, keng oʻquvchilar ommasi uchun moʻljallangan.

3-topshiriq. Matnda berilgan maʼlumotlar bilan tashib, annotatsiyaning tarkibiy tuzilishi asosida annotatsiya va kalit soʻzlarini ajratib yozing.

Logistika xizmatlari



Turli sohalarda xomashyo sotib olishdan mahsulot ishlab chiqarish va isteʼmolchilarga yetkazib berishgacha boʻlgan zanjir boʻyicha turli korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan barcha harakatlar logistika xizmatlari deb nomlanadi. Ushbu faoliyat zanjirida kerakli mahsulotlar kerakli miqdorda, toʻgʻri manbadan, toʻgʻri yoʻlda va arzon narxda etkazib berilishi va tashilishi taʼminlanadigan tadbirlar mavjud.

Biroq, dengiz va konteyner transporti, ayniqsa uzoq masofalarga va chet el mamlakatlariga transportirovka qilishda ajralib turadi. Vaqt cheklovisiz transportda har doim dengiz transporti afzal va transport xarajatlari muhimdir. Bugungi kunda deyarli butun dunyoni dengiz orqali tashish mumkin.

Transport xizmatlari logistika xizmatlarining asosini tashkil etadi. Xalqaro transport xizmatlarida eng koʻp qoʻllaniladigan usul dengiz transportidir. Avtomobil transporti milliy transport xizmatlaridan ajralib turadi (93 foiz). Avtotransport shunchalik taniqliki, mahsulotlarni yigʻish va manzilga yetkazib berish, kichik hajmdagi ehtiyojlarga javob berish va ularni kichik qismlarga birlashtirish orqali tashishga imkon beradi.

Soʻnggi yillarda logistika sohasida qoʻshma transport diqqatni tortdi. Birlashtirilgan transportda mahsulotlar bir xil konteynerda tashiladi, ammo turli xil transport usullari bilan. Masalan, qisqa masofalarda avtomobil transportida tashiladigan mahsulotlar avval uzoq masofalarga tashish uchun dengiz yoki temir yoʻl transporti vositalariga oʻtkaziladi.

Biroq, dengiz va konteyner transporti, ayniqsa uzoq masofalarga va chet el mamlakatlariga transportirovka qilishda ajralib turadi. Vaqt cheklovisiz transportda har doim dengiz transporti afzal va transport xarajatlari muhimdir. Bugungi kunda deyarli butun dunyoni dengiz orqali tashish mumkin. Ushbu oʻzgarishlar logistika xizmatlarining paydo boʻlishida samarali boʻldi. Logistika xizmatlari tufayli korxonalar operatsiyalar tezligini saqlab qolish bilan birga oʻz xarajatlarini kamaytirishga muvaffaq boʻlishdi. Borgan sari logistika

xizmatlari strategik ahamiyatga ega bo'ldi.

4-topshiriq. Quyidagi so'zlar ichidan annotatsiya yozishda qo'llaniladigan kirish so'zlar, klisheLashtirilgan so'z birikmalari va kalit so'zlarni ajratib jadvalga joylashtiring.

Texnologiya, maqolada, o'rganiladi, kitobda, internet, fikrlar jamlangan, darslikda, ko'rsatmada, transistor, dissertatsiyada, xarakteri ko'rinib turibdi, mezonlari o'rnatiladi, ko'rsatiladi, aniq ochib berilgan, tavsiflanadi, ko'rib chiqiladi, haqida gapiriladi, xotima qismida qichqacha to'xtalib o'tadi, matnda, kompyuter, ma'lumot keltirilgan, ta'kidlab o'tilgan, usul, belgilab berilgan, keltirib o'tilgan, e'tibor berilgan, kilovatt, keltirilgan, inobatga olingan, tasdiqlangan, telekommunikatsiya, buyuraman, so'z yuritilgan, shartnoma.

5-topshiriq. Matnni o'qib, tanqidiy fikrlashga oid topshiriqni bajaring.

Kirish so'zlar	Til klisheLari	Kalit so'zlar
Maqolada	haqida gapiriladi	Internet

Hozirgi zamonda texnologiyalar inson hayotini yanada qulaylashtirmoqda. Internet yordamida biz bilim olish, masofaviy ishlash va boshqa turli sohalarda erkin harakat qilish imkoniyatiga egamiz. Biroq, ko'pchilik texnologiyalar rivoji insonlarning muloqot qobiliyatlarini susaytiradi va ular real hayotdagi o'zaro munosabatlarda zaif bo'lib qoladi, deb hisoblaydi. Internetga haddan tashqari bog'lanish yoshlarning kitob o'qish odatlarini kamaytirib, ijodiy fikrlashni pasaytiradi, degan fikr ham mavjud. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanish odamlarning vaqtini tejab, ularni murakkab masalalar yechimida samarali bo'lishga undaydi. Masalan, sun'iy intellekt tizimlari yordamida turli kasalliklarni diagnostika qilish yoki iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda ilg'or ilmiy yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Shunday ekan, texnologiyalarning rivoji ijobiymi yoki salbiymi?

1. Matnda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, T sxemasidan foydalanib, ijobiy va salbiy fikrlarni ajratib yozing.

Masalan,	Ijobiy	Salbiy
	1. Inson hayotini yanada qulaylashtiradi	1. Ijodiy fikrlashni pasaytiradi

2. Ushbu masalada o'z nuqtai nazariningizni dalillar bilan asoslab yozing.

Masalan,

Masofaviy ta'lim: Internet va texnologiyalar yordamida masofaviy ta'limning imkoniyatlari kengaygan. O'quvchilar va talabalar istalgan joydan onlayn kurslar o'qish, yangi bilimlarni o'rganish va o'z malakalarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan. 2020-yildan boshlab, COVID-19 pandemiyasi davomida masofaviy ta'lim tizimi dunyo bo'ylab keng qo'llanila boshladi. Bu esa, masofaviy o'qitishning afzalliklarini ko'rsatdi va texnologiyalar ta'lim sohasida

yangi imkoniyatlar yaratdi.

6-topshiriq. Ijodiy fikrlashga oid topshiriqni bajaring.

Tasavvur qiling, sizga bir kun davomida butun dunyo taqdirini boshqarish imkoniyati berildi. Sizdan oldin hech kim bunday imkoniyatga ega bo'lmagan va dunyo aholisi sizning har bir qaroringizga bo'ysunadi. O'zingizga savol bering: avvalambor, qaysi muammoni hal qilasiz? Iqlim inqirozimi, oziq-ovqat tanqisligimi yoki butun dunyoda tinchlik o'rnatishmi? Balki yangi qonunlar joriy qilib, ta'lim yoki texnologiya rivojiga e'tibor qaratarsiz. Shu bilan birga, har bir qaroringiz o'ziga xos oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, butun dunyoda teng taqsimlangan resurslar turli jamiyatlarning tabiiy raqobatini yo'q qilishi mumkin yoki yangi texnologiyalar inson hayotini haddan tashqari soddalashtirib, dangasalikni kuchaytirishi ehtimoli bor. Qarorlaringizni qabul qilayotganda bularning barchasini hisobga olishingiz kerak. Ijodiy fikrlash savollari:

1. Bir kunlik imkoniyatni qanday ishlatishingizni tasavvur qilib yozing.
2. Qabul qilgan qarorlaringizning ijobiy va salbiy natijalarini tasvirlab bering.
3. Ushbu imkoniyatni uzoq muddatda qanday davom ettirishni rejalashtirgan bo'lar edingiz?

Agar talaba ilmiy matnlarga annotatsiyani qanday shakllantira olsa keyingi ilmiy tadqiqot ishlarida ishning qisqacha mazmuni, tadqiqotning asosiy g'oyalarini, maqsad va vazifalarini, metodologiyasini va asosiy natijalarini o'quvchiga yoki foydalanuvchiga tez va samarali tarzda taqdim eta oladi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva S.X., Dospanova D.U. Академическое письмо. Учебное пособие., Ташкент:, 2024. 80 bet.
2. K.A.Gayubova, N.D.Yulanova. Akademik yozuv. O'quv qo'llanma. Toshkent:. 2024. 65 b.
3. Кувшинская Ю.М., Зевахина Н.А. , Ахапкина Я.Э., Гордиенко Е.И. Академическое письмо от исследования к тексту. Учебник и практикум для вузов. Москва: Юрайт 2022.185 б.
4. Короткина И.Б. Модель обучения академическому письму., Учебное пособие для вузов. Москва: Юрайт, 202., 168 б.